

№14-17  
(1503)  
2024-YIL  
24-IYULO'ZBEKISTONDA  
SOG'LIQNI SAQLASHЗДРАВООХРАНИЕ  
УЗБЕКИСТАНА

IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETA ♦ 1995-YIL OKTABR OYIDAN CHIQA BOSHLAGAN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORIO'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING  
O'TTIZ UCH YILLIK BAYRAMIGA TAYYORGARLIK  
KO'RISH VA UNI O'TKAZISH TO'G'RISIDA

Bundan o'ttiz uch yil oldin o'ta og'ir va murakkab tarixiy vaziyatda qo'lga kiritilgan milliy istiqbolimiz bugungi kunda ko'p millatli butun xalqimizni Yangi O'zbekistonni barpo etishdek buyuk maqsad yo'lida birlashtirib, yangi yutuq va marralar sari ilhomlantirmoqda.

Aynan mustaqillik tufayli mamlakatimiz suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatga, xalqaro huquqning to'laonli sub'ektiga aylandi. Dunyo bizni yangitdan tanidi va tan oldi. Yer yuzidagi turli davlatlar va xalqlar bilan do'stlik hamda hamkorlik aloqalarimiz tobora kengayib, yurtimizning xalqaro maydondagi mavqei va nufuzi ortib bormoqda.

Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar jarayonida mustaqil davlat bo'lib, dunyoga ochilib yashash, erkin va ozod xalqlar oilasida munosib o'rin egallab, zamonaviy taraqqiyotga erishish naqadar ulug' baxt va sharaf,

shu bilan birga, ulkan mas'uliyat ekanini yanada chuqur his etmoqdamiz.

Xalqimizning milliy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ichki va tashqi siyosat borasidagi tub o'zgarishlar, erishilayotgan amaliy natijalar xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda va qo'llab-quvvatlanmoqda.

Barchamiz inson qadri oliy mezon bo'lgan yangi hayot, yangi jamiyat qurish yo'lida qo'lga kiritgan zafarlarimizni mustaqil taraqqiyot g'oyasiga hamisha sodiq, mard va matonatli xalqimizning fidokorona mehnati, aql-zakovati va bunyodkorlik salohiyati mahsuli deb bilamiz va ana shunday olijanob elning farzandlari ekanimizdan cheksiz faxrlanamiz.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik shonli sanasini chinakam umumxalq bayrami, ozodlik va saodat ayyomi sifatida ko'tarinki kayfiyatda kutib olish hamda mamlakatimizning bugungi taraqqiyot

darajasi, yuksalish sur'atlariga munosib tarzda nishonlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha respublika komissiyasining (keyingi o'rinlarda – Respublika komissiyasi) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Respublika komissiyasi (A. Aripov): bir hafta muddatda **“Bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!”** degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda targ'ibot-tashviqot ishlari dasturini tasdiqlasin. Mazkur dastur “O'zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek, “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili” bo'yicha qabul qilingan davlat dasturi bilan uyg'un holda tayyorlansin;

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayrami (keyingi o'rinlarda – Mustaqillik

bayrami) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida, shuningdek, barcha shahar hamda tumanlar, qishloq va ovullarda munosib nishonlanishini ta'minlasin;

hududlarda keng aholi qatlamlari o'rtasida Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy anjumanlar, uch avlod uchrashuvlarini, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, milliy kino kunlari, sayillar, madaniyat va sport tadbirlari, gastronomik festivallarni samarali o'tkazish maqsadida **atoqli ilm-fan namoyandalari, madaniyat va san'at arboblari, taniqli sportchilar, keng jamoatchilik vakillaridan iborat targ'ibot guruhlarini tashkil etsin** hamda ularning aniq reja asosida faoliyat yuritishini ta'minlasin;

Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan barcha tadbirlarning yuqori saviyada tashkil etilishi yuzasidan har bir hudud, vazirlik va idora rahbarlarining

Davomi 2-betda▶

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining  
BUYRUG'I

2024-yil 17-iyul

Toshkent shahri

№238

2024/2025 O'QUV YILIDA KLINIK  
ORDINATURA (REZIDENTURA)GA QABUL QILISH TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida” 2009-yil 18-dekabrda 319-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022-yildagi “ochiq muloqoti”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2022-yil 30-avgustdagi PQ-364 qarori bilan tasdiqlangan “Yo'l xarita”ning 40-bandidagi “Klinik ordinaturoda mutaxassis tayyorlash tizimini takomillashtirish” bo'yicha belgilangan vazifalarga muvofiq hamda tibbiyotning dolzarb yo'nalishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda tibbiyot kadrlariga bo'lgan ehtiyoj va talabni e'tiborga olib, **BUYURAMAN:**

## 1. Quyidagilar:

Klinik ordinatura (rezidentura) orqali tibbiyot kadrlarni 2024/2025 o'quv yilida tayyorlash bo'yicha mutaxassisliklari va ularga muvofiq keluvchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ro'yxati 1-ilovaga muvofiq;

2024/2025 o'quv yilida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-

amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari kesimida klinik ordinatura (rezidentura)ga umumiy va maqsadli qabul rejasi 2-ilovaga muvofiq;

2024/2025 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul bo'yicha mas'ul kotiblar ro'yxati 3-ilovaga muvofiq;

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika

ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari klinik ordinator (rezident) larini “O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi, Fuqarolik jamiyati” fanini o'qitish uchun Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi va tibbiyot oliy ta'lim muassasalariga biriktirish jadvali 4-ilovaga muvofiq;

2024/2025 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish to'g'risidagi hisobot shakllari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

## 2. Belgilansinki:

2024/2025 o'quv yili qabulida: klinik ordinatura (rezidentura) mutaxassisliklariga o'qishga qabul qilish tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan tanlangan mutaxassislikka mos ravishda tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlari fanlari negizida kirish

sinov imtihonlari amalga oshiriladi, bunda fanlar bo'yicha kirish imtihonlari test sinovlari shaklida o'tkaziladi;

klinik ordinatura mutaxassisligiga mos ravishda tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha imtihonlar natijalari sinovlar o'tkazilganidan keyin uch kun muddatda ta'lim muassasasi tomonidan idoralararo elektron axborot almashinuv tizimi orqali Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etiladi hamda mazkur muassasaning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

3. 2024/2025 o'quv yili Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligi N.I. Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universitetida O'zbekiston Respublikasining 35 nafar fuqarosi ta'lim oladigan oliy ta'limning o'quv dasturlari — ordinatura dasturlari ro'yxati 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

2024/2025 o'quv yili Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash

Davomi 3-betda▶

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORIO'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING  
O'TTIZ UCH YILLIK BAYRAMIGA TAYYORGARLIK  
KO'RISH VA UNI O'TKAZISH TO'G'RISIDA

## ← Davomi. Boshi 1-betda

hisobotlarini o'z yig'ilishlarida muntazam ravishda eshitib borsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o'tkaziladigan asosiy bayram tadbirlarining dasturlarini tayyorlashga yuqori professional mahorat hamda tajribaga ega bo'lgan ssenariychi va rejissyorlar, shoir va adiblar, bastakor hamda baletmeysterlar, sahna rassomlari, maqom va baxshichilik san'ati vakillari, iste'dodli yosh ijrochilardan iborat ijodiy guruhlar keng jalb etilsin.

4. Joylarda Mustaqillik bayramini yuqori saviyada nishonlash maqsadida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilsin:

yurtimizda inson qadri, uning huquq va manfaatlarini yetakchi o'rinda turadigan ijtimoiy davlat va xalqparvar jamiyat qurish yo'lida amalga oshirilayotgan tarixiy ishlar, mehnatkash va bag'rikeng xalqimizning bunyodkorlik salohiyati bilan erishilayotgan ulkan natijalarning mazmun-mohiyati haqida mahallalar, ta'lim muassasalari, mehnat jamoalarida ma'rifiy uchrashuv va suhbatlar o'tkazish; keyingi yillarda mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirish, "yashil" va raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha hayotga tatbiq etilayotgan yirik dastur va loyihalar hamda bu borada qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni aniq hayotiy misollar orqali keng yoritish;

sud-huquq tizimini isloh etish, shahar

va qishloqlarimizni obod qilish, mahalla tizimini xalqimizga yanada yaqinlashtirish yo'lidagi doimiy sa'y-harakatlar va ularning samarasi haqidagi targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish;

yurtimizda do'stlik va hamjihatlik muhiti tobora mustahkamlanib, mintaqamizdagi yaxshi qo'shnichilik, tinchliksevar tashqi siyosat tufayli O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori yuksalayotgani, do'st va hamkorlarimiz safi kengayib borayotganini chuqur tahlillar asosida ko'rsatib berish;

navqiron avlodga Yangi O'zbekistonning kelajagi sifatida alohida e'tibor qaratilayotgani, yoshlar bilan ishlash bo'yicha noyob tizim yaratilishi natijasida ularni zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha yurtimizda shakllangan samarali va ta'sirchan tizim mohiyatini ochib berish;

sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va san'at, sport sohalarini rivojlantirish, nuroniyalar va xotin-qizlarga doimiy g'amxo'rlik ko'rsatish, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglik bo'yicha amalga oshirilayotgan ijtimoiy dasturlar mazmuniga alohida e'tibor qaratish;

davlatimiz mustaqilligi, uning xavfsizligi va hududiy yaxlitligining ishonchli kafolati bo'lgan O'zbekiston Qurolli Kuchlarining harbiy va jangovar qudratini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarni keng targ'ib etish;

Mustaqillik bayrami munosabati bilan keksa avlod vakillarini, xususan,

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e'zozlash, "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlariga kiritilgan hamda ko'makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ularga moddiy va ma'naviy yordam berish bilan bog'liq xayriya tadbirlarini o'tkazish;

Vatanimizning milliy istiqloli, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo'lda jon fido etgan, mustabid tuzum davrida siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan otabobolarimizning xotirasini yod etish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

5. Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov): Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda bir hafta muddatda Toshkent shahrida Mustaqillik bayramiga bag'ishlab o'tkaziladigan teatrlashtirilgan konsert tomoshasining dasturi va ssenariysini ishlab chiqsin hamda uni yuksak g'oyaviy-badiiy saviyada tayyorlash choralari ko'rsin;

Badiiy akademiya, Yozuvchilar uyushmasi, Jurnalistlar uyushmasi bilan birgalikda "Ona diyor – ranglar jilosida", "Vatan uchun yashaylik!", "Eng ulug', eng aziz" kabi an'anaviy ko'rik-tanlovlarni yuqori darajada o'tkazishni ta'minlasin;

Kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda yurtimiz istiqlolini tarannum etuvchi

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

Toshkent shahri,  
2024-yil 18-iyul

eng yaxshi qo'shiq va musiqa asarlari tanlovlarining yakuniy bosqichini o'tkazsin; mazkur tanlovlarning g'olib va sovrindorlarini Mustaqillik bayrami arafasida e'lon qilish va ularni tantanali ravishda taqdirlash choralari ko'rsin.

6. Belgilab qo'yilsinki, o'tkaziladigan bayram tadbirlari:

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda – tegishli mahalliy byudjetlarning qo'shimcha manbalari hamda jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hisobidan;

Toshkent shahrida – Respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti va Toshkent shahar mahalliy byudjeti mablag'lari hisobidan teng ulushlarda moliyalashtiriladi.

7. O'zbekiston Milliy teleradio-kompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, "Dunyo" axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Mustaqillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.Q. Abdurahmonov zimmasiga yuklansin.

Sh.MIRZIYOEV

## ХАЙЪАТ ЙИГИЛИШИ

СОҲАДАГИ ФАОЛИЯТЛАР ТАНҚИДИЙ-  
ТАҲЛИЛИЙ КЎРИБ ЧИҚИЛДИ

Соғлиқни сақлаш вазирлигининг навбатдаги Хайъат йиғилиши бўлиб ўтди. Унда вазирлик марказий аппарати ходимлари, Санитария-эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги кўмитаси, Давлат тиббий суғуртаси жамғармаси, Фармацевтика тармоғини ривожлантириш агентлиги, Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази ҳамда Стратегик режалаштириш ва саломатлик институти, ихтисослаштирилган марказлар, республика даволаш муассасалари ва тиббиёт олий ўқув юртлири раҳбарлари иштирок этди.

Жойлардаги студиялардан барча хуудий бошқармалар ҳамда туман тиббиёт бирлашмалари масъуллари уланди. Шунингдек, йиғилишда Олий Мажлис Сенатининг Фан, таълим ва соғлиқни сақлаш масалалари кўмитаси раиси О.Иминов, кўмита аъзолари, Президент Администрацияси, Бош прокуратура масъуллари қатнашди.

Тадбир Соғлиқни сақлаш вазири вазирасини бажарувчи Асилбек Худаяров маърузаси билан бошланди. Дастлаб Вазирлар Маҳкамасининг тегишли қарорига мувофиқ тасдиқланган Соғлиқни сақлаш вазирлиги хайъати аъзоларининг янги таркиби таништирилди. Шундан сўнг вазир ўз чиқишида тизимда

олиб борилаётган ишларни танқидий таҳлил қилди.

– Давлатимиз раҳбари тиббиётни халққа янада яқинлаштириш талабини қўйган, – деди Асилбек Худаяров. – Бунинг учун танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик тизимдаги ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак! Жойлардаги муаммоларга оқилона ва тезкор ечим топишимиз учун, аввало, қўйиға тушиб, уларни чуқур ўрганишимиз, таҳлил қилишимиз лозим. Энди бевосита вазирлик ҳузурида тузилган махсус ишчи гуруҳлар томонидан, бевосита вазир бошличилигида туман ва шаҳарлардаги ҳақиқий ҳолат, хусусан, бирламчи тиббиёт муассасалари фаолияти,

аҳолига кўрсатилаётган тиббий хизмат ҳажми ва сифати, "махалла еттичилиги" билан биргаликда олиб борилаётган ишлар янада чуқур ўрганилиб, шунга кўра тегишли чора-тадбирлар белгиланади.

Кун тартибидagi навбатдаги масала – репродуктив саломатлик, оналик ва болаликни муҳофаза қилиш бўйича амалга оширилаётган ишлар юзасидан Олий Мажлис Сенатининг Фан, таълим ва соғлиқни сақлаш масалалари кўмитаси раиси О.Иминовнинг маърузаси эшитилди.

Унда шу йил 5 февраль куни Президентимиз бошчилигида ўтказилган видеоселектор йиғилишида белгиланган вазифалар ижроси муҳокама қилинди. Хусусан, тиббиёт муассасалари томонидан баъзи ҳудудларда ҳомилдорликни эрта муддатда ҳисобга қўйиш, уларни мунтазам назоратга олиш ва кузатиб бориш, пренатал скрининг текширувлари билан қамраб олиш етарли даражада ташкил этилмагани, ҳомилдорлик пайтида кечадиган соматик касалликларни барвақт аниқлаш ва даволаш чоралари талаб дара-



жасида кўрилмагани танқид остига олинди.

Галдаги масала эндокринология ва онкология соҳаларида касалликларни эрта аниқлаш, даволаш ва мазкур йўналишларда аниқланган камчиликларни бар-тараф этиш бўйича топшириқлар ижросига бағишланди. Мавзу юзасидан Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ва вазирлик масъул ходимларининг ҳисоботлари тингланди. Сўзга чиққанлар ушбу соҳалар бўйича олиб борилган ўрганишлар давомида жойларда аниқланган баъзи қонунбузилиш ҳолатлари, йўл қўйилган камчиликлар, бу бора-

да қиритилган тақдимномалар, кўрилган чоралар юзасидан маълумот берди. Бинобарин, ушбу йўналишларда сусткашликка йўл қўйган раҳбар-ҳодимларга нисбатан тегишли чоралар кўрилиши қайд этилди.

Ўз навбатида, жойлардаги бирламчи бўғин муассасаларида кундузги стационарлар, амалиёт ҳамширалари иши, шифокорлар кўрик хоналари фаолиятини талаб даражасида йўлга қўйиш бўйича ҳам мутасаддиларга тегишли топшириқлар берилди.

Соғлиқни сақлаш  
вазирлигининг  
Матбуот хизмати.



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining  
BUYRUG'I

2024-yil 17-iyul

Toshkent shahri

№238

**2024/2025 O'QUV YILIDA KLINIK  
ORDINATURA (REZIDENTURA)GA QABUL QILISH TO'G'RISIDA**

← Davomi. Boshi 1-betda

vazirligi N.I. Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universitetining (keyingi o'rinlarda – RMTTU) ordinatura mutaxassisliklariga O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini o'qishga qabul jarayoni tartibi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun qabul parametrlari soni klinik ordinatura mutaxassisliklari kesimida 2024/2025 o'quv yili uchun RMTTU tomonidan tasdiqlanadi, bunda umumiy tanlovdan o'tganlar uchun o'qish to'lov kontrakt asosida amalga oshirilishi inobatga olinsin;

2024/2025 o'quv yili RMTTU ordinatura tanlovida yuqori ball olib o'qishga qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 35 nafar fuqarosi uchun Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi "Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish jamg'armasi fondi" hisobidan klinik ordinatorning borish kelish aviachiptasi (bir martalik), kunlik safar xarajatlari hamda o'qish to'lov kontrakt summasi qoplanishi belgilansin.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari rektorlari Rayosati raisi (B.Daminov), Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari rektorlari va filiallari direktorlari (Sh. Boymuradov, B. Daminov, N. Xaydarov, O. Ataniyazova, J. Rizayev, A. Madazimov, Sh. Teshayev, A. Sidikov, R. Ro'zibayev, F. Otaqulov, G. Sultanov)ga:

Respublika tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tanlov bosqichlari yuqori saviyada amalga oshirilsin, bunda:

2024-yilning 16-18-avgust kunlari har bir tibbiyot oliy ta'lim muassasasida dastlabki tanlov (suhat)dan o'tkazish bo'yicha Ishchi guruhni shakllantirish, talabgorlarni rus tilida dastlabki tanlov (suhat)dan o'tkazilsin;

2024-yil 20-avgust kuniga qadar Ishchi guruh tomonidan tanlovda ishtirok etishga tavsiya etilgan abituriyentlar hujjatlarini N.I. Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universiteti ordinatura mutaxassisliklariga qabul bo'yicha e'lon qilingan veb-saytda topshirish va ro'yxatdan o'tish jarayonini olib borish, ordinatura mutaxassislariga qabul tanlovi onlayn test savollari bo'yicha abituriyentlar o'z-o'zini nazorat qilish uchun imkoniyatlar yaratilsin;

2024-yil 22-24-avgust kunlari abituriyentlarning N.I. Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universiteti ordinatura

mutaxassisliklariga qabul bo'yicha onlayn formatdagi test sinovlarida ishtirok etishlarini markazlashgan holda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti hududida tashkil etilsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri (M. Kurbanov), Toshkent shahar va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmasi boshliqlari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi (X. Akilov), Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari rektorlari (Sh. Boymuradov, B. Daminov, N. Xaydarov, O. Ataniyazova, J. Rizayev, A. Madazimov, Sh. Teshayev, A. Sidikov, R. Ro'zibayev, F. Otaqulov, G. Sultanov):

uch kun muddatda, 2024/2025 o'quv yilidan boshlab, yuqori malakali ilmiy-amaliy kadrlar potentsiali mavjud, zamonaviy moddiy-texnik bazaga ega va klinik ordinatorlarni o'qitish bo'yicha ta'lim dasturlari mavjud xususiy klinikalarda klinik ordinaturada mutaxassis tayyorlash tizimini joriy etish istagini bildirgan va meyo'riy hujjatlari talab va shartlarga javob beradigan xususiy klinikalar tomonidan Vazirlikka talabnoma va tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilishi e'lon qilinsin;

klinik ordinaturada mutaxassis tayyorlash bo'yicha da'vogar bo'lib, Sog'liqni saqlash vazirligiga 2024/2025 o'quv yiliga talabnoma taqdim etgan xususiy klinikalarni (keyinchalik – Xususiy klinika) amaldagi qonunchilikka muvofiq talablarga mos ekanligini aniqlaydigan va ta'lim jarayoni boshlanishini belgilaydigan Sog'liqni saqlash vazirligi komissiyasi (keyinchalik — Komissiya) tashkil etilsin va Klinik ordinaturada mutaxassis tayyorlash bo'yicha da'vogar xususiy klinikalarni amaldagi qonunchilikka muvofiq talablarga mosligini aniqlash Komissiya a'zolari ro'yxati 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2024-yil 1-avgust kuniga qadar, Komissiya a'zolari tomonidan xususiy klinikalardan talabnomalar yig'ib umumlashtirilsin, to'liq ma'lumot Vazirlikda muxokamaga taqdim etilsin, quyidagi talablarga javob berishi batafsil tekshirilsin:

Vazirlar Mahkamasining "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2009-yil 18-dekabrda 319-son qarori bilan tasdiqlangan 2-ilovadagi Klinik ordinatura to'g'risidagi Nizom talablari;

O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 7-apreldagi PQ-4666-son qarorining 12-bandi talablari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldagi 88-sonli "Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor qilish tartibi to'g'risidagi yagona Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorining 7-ilovasi bilan tasdiqlangan "Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash faoliyatining Pasporti"da belgilangan talablar va shartlarga majburiy javob bergan holda, Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligiga Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash faoliyati to'g'risida xabarnoma berilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-sonli "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorning 2-ilovasidagi Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona Nizomga asosan, Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash Pasportida belgilangan litsenziya talablari va shartlariga mos bo'lgan holda, Litsenziyalovchi organ — Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligidan Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni amalga oshirish uchun litsenziya mavjudligi.

Komissiya xulosasiga muvofiq, komissiya a'zolari tomonidan quyidagilar amalga oshirilsin:

klinik ordinaturada mutaxassis tayyorlash bo'yicha da'vogar bo'lib, Sog'liqni saqlash vazirligiga 2024/2025 o'quv yiliga talabnoma taqdim etgan xususiy klinikalarni amaldagi qonunchilikda belgilangan shart va talablarga mos bo'lganlarini tanlab olib, klinik ordinatorlarni o'qitish vakolati berilgan xususiy klinikalar ro'yxatini tuzish.

Bunda, har bir xususiy klinikaga sifatli ta'lim jarayon amalga oshirish imkoniyatidan kelib chiqib:

o'qitiladigan mutaxassisliklar ro'yxati;

qabul kvotalari ko'rsatkichlari; qabul jarayoni uchun mas'ul kotiblar nomzodlarini belgilasin va Komissiya yig'ilishi Bayoni bilan tasdiqlasin;

qabul jarayoni o'rnatilgan talablarga mos ravishda amalga oshirilsin (ushbu buyruqni 9bandiga

muvofiq);

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarini klinik ordinatura mutaxassislarini tayyorlaydigan xususiy klinikalarga hududlar kesimida birlashtirilish taqsimotini 9-ilovaga muvofiq tasdiqlasin;

birlashtirilgan tibbiyot oliy ta'lim muassasalari xususiy klinikalarga qabul jarayoni, nazariy ta'lim jarayoni, sifatli uzluksiz ta'lim jarayoni, bilim va ko'nikmalar nazoratida metodik yordam ko'rsatib borsin;

oraliq va yakuniy nazorat jarayonlarida, 2 bosqichli yakuniy davlat attestatsiya jarayonlarida birlashtirilgan tibbiyot oliy ta'lim muassasalari mas'ul xodimlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, Viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmasi mas'ullari ishtiroki ta'minlansin.

Klinik ordinatorlarni o'qitish vakolati berilgan xususiy klinikalar o'rnatilgan muddatda akkreditatsiyadan o'tishi ta'minlansin va belgilangan nusxadagi Guvoohnoma berilishiga ruxsat etilsin.

5. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari, ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari rektorlari va direktorlari (qabul komissiyalari raislari) hamda klinik ordinatura bo'yicha qabul komissiyasi mas'ul kotiblari:

klinik ordinatura (rezidentura) ga hujjat topshirish jarayonida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilari, ularning yaqin qarindoshlari va boshqa fuqarolarga to'liq va batafsil tushuntirish ishlarini olib borish;

ommaviy va jamoaviy murojaatlarni oldini olish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'rishga shaxsan mas'ul hisoblanadi;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining mas'uliyatsizlik bilan yondashgan birinchi rahbarlariga o'rnatilgan tartibda intizomiy jazo qo'llanilishi to'g'risida ogohlantirilsin.

6. Klinik ordinatura (rezidentura) ga o'qishga kirish uchun talabgorlar tibbiyot oliy ta'lim muassasasi yoki ilmiy markaz davlat va nodavlat tibbiyot muassasalari qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

klinik ordinatura (rezidentura) mutaxassisligi ko'rsatilgan holda, oliy ta'lim muassasasi (ixtisoslashtirilgan ilmiy markazi, ilmiy-tadqiqot

Davomi 4-betda ▶



## O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining

## BUYRUG'I

Toshkent shahri

2024-yil 17-iyul

№238

**2024/2025 O'QUV YILIDA KLINIK  
ORDINATURA (REZIDENTURA)GA QABUL QILISH TO'G'RISIDA**

← Davomi. Boshi 1 va 3-betlarda

instituti) rektori (direktori) va nodavlat tibbiyot muassasasi rahbari nomiga ariza;

oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat (yoki diplomdan ko'chirma – O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarini davlat granti bo'yicha o'qib tugatganlar uchun) hamda unga ilova;

086-U-shakldagi tibbiy ma'lumotnoma;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'qishga kirishda imtiyoz beruvchi hujjat.

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar mavjud bo'lganda oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi abituriyentning hujjatlarini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

7. **Matbuot xizmati** (F. Sanayev), "O'zbekistonda sog'liqni saqlash" gazetasi (I. Soatova) bilan birgalikda klinik ordinatura (rezidentura) qabul kvotalarining ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinishini ta'minlasin.

8. **Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari rahbarlari:**

2024/2025 o'quv yili qabulida hujjat topshiruvchilarga qulaylik yaratish maqsadida ro'yxatdan o'tish jarayoni bevosita va onlayn tarzda – tashkilotlarning rasmiy veb-saytlari orqali amalga oshirilsin;

klinik ordinatura (rezidentura) ga hujjatlar qabul qilishni ommaviy axborot vositalarida tanlov e'lon qilingan kundan boshlab, joriy yilning **20-avgustiga qadar (shu kuni ham) amalga oshirilishi;**

hujjat topshiruvchilar va ularning ota-onalarini qiziqtirgan savollarga javob berish uchun tashkilotlarda haftaning dushanba-shanba kunlari soat 9:00-18:00 gacha (1-sentabrgacha bo'lgan muddatda) ishlaydigan murojaatlar markazi ("Call markaz") faoliyatini tashkil etish;

qabul qilingan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotni joriy yilning **22-avgustiga qadar** o'rnatilgan tartibda vazirlik Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasiga topshirilishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar qabul rejasi bo'yicha berilgan maqsadli o'rinlarga tanlovni har bir viloyat uchun alohida tashkil etish va ajratilgan o'rinlarga ushbu hududlarda yashovchi yoki boshqa viloyatlarda ishlash istagini bildirgan shifokorlarni qabul qilinishi;

joriy yilning 24-26-avgust kunlari tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, nodavlat tibbiyot muassasalari (xususi klinikalar)da 2024/2025 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura) mutaxassisliklari bo'yicha kirish imtihonlari bir bosqichli test sinovlari asosida Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi va uning hududiy bo'limlari tomonidan o'tkazilishi inobatga olinsin.

Bunda, 2024-yil 1-avgustga qadar tibbiyot oliy ta'lim muassasalari rektorlar Rayosati tomonidan test sinovi savollarini Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markaziga tasdiqlangan shaklda taqdim etish;

2024-yil 22-avgustga qadar test sinovlarini tashkil etish bo'yicha Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi bilan shartnoma rasmiylashtirish;

klinik ordinatura mutaxassisliklari bo'yicha test sinovlari topshiradigan talabgorlarni belgilangan muddatda test sinovlarida ishtirok etish;

2024-yil 24-avgustga qadar har bir talabgor uchun bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravari miqdoridagi to'lovlarni tegishli tashkilotlar tomonidan Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markaziga to'lab berish;

klinik ordinatura (rezidentura) ga qabul qilish rejasi bajarilganligi to'g'risidagi hisobotni joriy yilning **5-sentabr sanasiga qadar** vazirlikning Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasiga taqdim etish;

klinik ordinatura (rezidentura) ga kirish uchun tanlovda ishtirok etuvchi har bir shifokorga uning hujjatlari qabul qilinganligi va test sinovlari muddati ko'rsatilgan ma'lumotnoma qabul komissiyasi tomonidan berilishini ta'minlash;

klinik ordinatura (rezidentura)ni tugatgan har bir mutaxassisni ishga joylashish monitoringini ta'minlash maqsadida, ular to'g'risidagi ma'lumotni Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalariga taqdim etish vazifalari yuklansin.

9. Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi (S.Sharipov):

markaz va uning hududiy bo'limlarida test sinovlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy ishlarni yo'lga qo'ysin;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalari rektorlar Rayosati bilan hamkorlikda sinovlar uchun testlar bazalarini

shakllantirsin;

klinik ordinaturada o'qish uchun talabgorlar e'tiboriga test sinovlari namunalari rasmiy saytlarda e'lon qilinsin.

10. Sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rinbosari (D.Sultanov) hamda Ilm-fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i (O'. Ismailov)

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri uchun klinik ordinatura (rezidentura)ga ajratilgan o'rinlar to'ldirilgan taqdirda, ularni hududiy kvota doirasida qayta taqsimlash;

Toshkent shahrida tanlovdan o'tgan shifokorlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari filiallarida o'qish roziligini bildirgan holda ularni viloyat qabul rejasi doirasida yuborish vazifalari topshirilsin.

11. Moliya-iqtisod boshqarmasi (O.Safarov):

joriy yilning 1-sentyabrga qadar Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida 2024/2025 o'quv yilida klinik ordinator (rezident)larni tayyorlash bir yillik o'qitish qiymati hisob-kitoblarini hamda maqsadli to'lov-kontrakt to'lov bo'yicha qabul parametrlari asosida o'qishga qabul qilingan abituriyentlarning to'lov-kontrakt summasi ishlab chiqsin;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalari, ularning filiallari, Tibbiyot xodimlari kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlaridagi klinik ordinator (rezident)lar uchun «O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi, Fuqarolik jamiyati» fanini ikki yil mobaynida umumiy 36 soat o'qitish;

N.I. Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universitetida ordinatura tanlovida yuqori ball olib o'qishga qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 35 nafar fuqarosi uchun Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi "Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish jamg'armasi fondi" hisobidan klinik ordinatorning borish kelish aviachiptasi (bir martalik), kunlik safar xarajatlari hamda o'qish to'lov kontrakt summasi qoplanishi uchun sarf-xarajatlar hisob-kitobini ishlab chiqish choralari ko'rsin.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida faoliyat yuritayotgan shifokorlar oylik ish haqiga qo'shimcha har oylik ustama to'lanadigan olis va chekka hududlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"

2022-yil 19-sentyabrdagi 510-son qarorining 1-bandi 4-xatboshisiga amal qilgan holda "olis va chekka hududlarda uzluksiz uch yil ishlagan shifokorlar klinik ordinaturaga test sinovlarisiz qabul qilinishi" inobatga olinsin. Mazkur imtiyozni qo'llashda qarorning ilovasi bilan tasdiqlangan olis va chekka hududlar ro'yxatiga amal qilinsin.

olis va chekka hududlarda uzluksiz uch yil ishlagan shifokorlar klinik ordinaturaga test sinovlarisiz belgilangan kvotadan tashqari qabul qilinishi va bunda davogar tomonidan taqdim etilgan hujjat larning mazkur toifaga mos kelishi, to'g'ri rasmiylashtirilgani va ularning qonuniyligi uchun javobgarlik tibbiyot oliy ta'lim muassasalariga yuklatilishi inobatga olinsin.

13. Sog'liqni saqlash vazirining 2024-yil 18-martdagi "2024/2025 o'quv yilida birlamchi maqsadli ixtisoslashtirish kurslari (internatura) ga qabul qilish to'g'risida" 81-son buyrug'iga quyidagi qo'shimchalar kiritilsin:

Sog'liqni saqlashning birlamchi tizimi muassasalarida psixogen va psixosomatik kasalliklarning profilaktikasi, diagnostikasi, psixoterapiyasi, farmakoterapiyasi va psixoreabilitatsiyasi bilan bilan shug'ullanuvchi tibbiy psixologlarga bo'lgan ehtiyojni inobatga olib 2024/2025 o'quv yilida Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi va tibbiyot oliy ta'lim muassasalari bo'yicha "Tibbiy psixologiya va psixoterapiya" mutaxassisligi bo'yicha internaturaga qabul kvotalari 10-ilovaga;

Respublika hududlarida mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni inobatga olib, "Dermatovenerologiya (teritanosil kasalliklari)" mutaxassisligi bo'yicha internaturaga qabul kvotalari 11-ilovaga;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-iyundagi "Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-196-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Narkologiya" mutaxassisligi bo'yicha grant asosida internaturaga qabul kvotalari 12-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda mazkur mutaxassislik bo'yicha shifokorlarni qabul qilish tartibi Sog'liqni saqlash vazirining 2024-yil 18-martdagi "2024/2025 o'quv yilida birlamchi maqsadli ixtisoslashtirish kurslari (internatura)ga qabul qilish to'g'risida" 81-son buyrug'i asosida amalga oshirilsin.

14. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Sog'liqni saqlash vaziri  
vazifasini bajaruvchi

A.Xudayarov

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining

BUYRUG'I

Toshkent shahri

2024-yil 17-iyul

№238

# 2024/2025 O'QUV YILIDA KLINIK ORDINATURA (REZIDENTURA)GA QABUL QILISH TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni  
saqlash vazirining 2024-yil 17-iyuldagi  
238-sonli buyrug'iga  
1-ilova

Klinik ordinatura (rezidentura) orqali tibbiyot kadrlarni 2024/2025 o'quv yilida tayyorlash  
bo'yicha mutaxassisliklari va ularga muvofiq keluvchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari  
RO'YXATI

№	Klinik ordinatura mutaxassisliklari* nomi	Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari	
		shifri	nomi
1	Akusherlik va ginekologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
2	Allergologiya va klinik immunologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
3	Anesteziologiya va reanimatologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
4	Bolalar anesteziologiya vareanimatologiyasi	5510200	Pediatriya ishi
5	Bolalar kardiorevmatologiyasi	5510200	Pediatriya ishi
6	Bolalar immunologiya-allergologiyasi	5510200	Pediatriya ishi
7	Bolalar onkologiya-gematologiyasi	5510200	Pediatriya ishi
8	Bolalar nevrologiyasi	5510200	Pediatriya ishi
9	Bolalar nefrologiyasi gemodializ bilan	5510200	Pediatriya ishi
10	Bolalar va o'smir qizlar ginekologiyasi	5510200	Pediatriya ishi
11	Bolalar urologiyasi	5510200	Pediatriya ishi
12	Bolalar xirurgiyasi	5510200	Pediatriya ishi
13	Bolalar kardioxirurgiyasi*****	5510200	Pediatriya ishi
14	Bolalar terapevtik stomatologiyasi	5511000	Bolalar stomatologiyasi
15	Bolalar jarrohlik stomatologiyasi	5511000	Bolalar stomatologiyasi
16	Bolalaryuqumlikasalliklari	5510200	Pediatriya ishi
17	Bolalarvao'smirlargigiyanasi	5510300	Tibbiy profilaktika ishi
18	Gematologiya va transfuziologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi

Davomi 6-betda ▶

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining  
BUYRUG'I

2024-yil 17-iyul

Toshkent shahri

№238

**2024/2025 O'QUV YILIDA KLINIK  
ORDINATURA (REZIDENTURA)GA QABUL QILISH TO'G'RISIDA**

19	Gigiyena (yo'nalishlar bo'yicha)	5510300	Tibbiy profilaktika ishi
20	Dermatovenerologiya (teritanosil kasalliklari)	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
21	Dental implantologiya	5510400	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)
22	Diyetologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
23	Ichkikasalliklar (terapiya) (yo'nalishlar bo'yicha)	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
24	Intervension kardiologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
25	Kardiologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
26	Kardioxirurgiya****	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
27	Klinik farmakologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
28	Kommunal gigiyena	5510300	Tibbiy profilaktika ishi
29	Laboratoriya ishi	5510300	Tibbiy profilaktika ishi
		5510900	Tibbiy – biologik ish
		5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
		5510400	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)
		5511000	Bolalar stomatologiyasi
30	Mehnatgigiyenasi	5510300	Tibbiy profilaktika ishi
31	Morfologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi



32	Narkologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
33	Nevrologiya (asabkasalliklari)	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
34	Neyroxirurgiya**	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
35	Neonatologiya	5510200	Pediatriya ishi
36	Nefrologiya gemodializ bilan	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
37	Nutritsiologiya (ovqatlanishgigiyenasi)	5510300	Tibbiy profilaktika ishi
38	Otorinoloringologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
39	Ortodontiya	5510400	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)
		5511000	Bolalar stomatologiyasi
40	Ortopedik stomatoogiya	5510400	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)
		5511000	Bolalar stomatologiyasi
41	Oftalmologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
42	Patologik anatomiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
		5510300	Tibbiy profilaktika ishi***
43	Parodontologiya	5510400	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)
44	Pediatriya (yo'nalishlar bo'yicha)	5510200	Pediatriya ishi
45	Plastik xirurgiya*****	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
46	Psixiatriya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
47	Pulmonologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining  
BUYRUG'I

2024-yil 17-iyul

Toshkent shahri

№238

**2024/2025 O'QUV YILIDA KLINIK  
ORDINATURA (REZIDENTURA)GA QABUL QILISH TO'G'RISIDA**

48	Reabilitologiya (davolash fizkulturasi, kurortologiya, fizioterapiya)	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
49	Revmatologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
50	Sport tibbiyoti	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
51	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)	5510400	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)
		5511000	Bolalar stomatologiyasi
52	Sud-tibbiyot ekspertizasi	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
53	Terapevtik stomatologiya	5510400	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)
54	Tibbiy psixologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
55	Tibbiy radiologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
56	Tibbiyot genetikasi	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
57	Travmatologiya va ortopediya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
58	Transplantologiya*****	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
59	Umumiy onkologiya (shu jumladan, palliativ tibbiy yordam)	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining  
BUYRUG'I

2024-yil 17-iyul

Toshkent shahri

№238

**2024/2025 O'QUV YILIDA KLINIK  
ORDINATURA (REZIDENTURA)GA QABUL QILISH TO'G'RISIDA**

60	Umumiy xirurgiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
61	Urologiya	5510100	Davolash ishi
		5111000	Professional ta'lim (Davolash ishi)
		5510200	Pediatriya ishi
